

*Abdullayev O.Sh.*

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Organik dehqonchilik va o‘rmon melioratsiyasi” kafedrasasi assistenti*

*Ne‘matjonova G.M.*

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Manzarali bog‘dorchilik va ko‘kalamzorlashtirish” ta‘lim yo‘nalishi 4 bosqich talabasi*

*Abdullaev O.Sh.*

*Assistant of the Department of “Organic Agriculture and Forest Melioration” at the Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. Uzbekistan.*

*Ne‘matjonova G.M.*

*4th-year student in the “Scenic Gardening and Greening” field of study at the Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. Uzbekistan.*

## **O‘RMON TAKSATSIYASI UCHUN ODDIY ISH QUROLLARI.**

### **SIMPLE TOOLS FOR FOREST TAXATION.**

***Annotatsiya:** Maqolada o‘rmon taksatsiyasi jarayonida qo‘llaniladigan oddiy ish qurollari, ularning vazifalari va amaliy ahamiyati yoritiladi. O‘rmon fondini baholashda daraxtlarning diametri, balandligi, yoshi va zichligini aniqlash muhim bo‘lib, bu jarayonda ruletka, diametr o‘lchagich (kluppa), balandlik o‘lchagich (gipsometr), kompas, o‘lchov tayoqchalari kabi oddiy asboblardan foydalaniladi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘rmon taksatsiyasi, o‘lchov asboblari, diametr o‘lchagich, balandlik o‘lchagich, ruletka, kompas, o‘rmon monitoringi, inventarizatsiya.*


***Abstract:** This article highlights the simple tools used in the forest taxation process, their functions, and practical significance. When assessing the forest fund, it is important to determine the diameter, height, age, and density of trees; in this process, simple tools such as a tape measure, a diametric gauge (klupp), a height gauge (gypsometer), a compass, and measuring sticks are used.*

***Keywords:** forest taxation, measuring instruments, diameter gauge, altimeter, tape measure, compass, forest monitoring, inventory.*

**Kirish:** Mamlakatimizda barcha sohalar qatori o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirishga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘rmon xo‘jaligining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, ularni malakali kadrlar bilan mustaxkamlash uchun Prezidentimiz tomonidan aniq chora tadbirlar belgilab berilgan.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, o‘rmon xo‘jaliklari ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilashda hisoblash ishlarini aniq olib borish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O‘rmon xo‘jaligida hisoblash va aniqlash ishlarini o‘rmon taksatsiyasi fani olib boradi. O‘rmon taksatsiyasi o‘rmonlarning sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishlarini baholaydi va daraxtlarning o‘sib rivojlanishini aniqlab boradi. Keyingi paytlarda fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan o‘rmon taksatsiyasiga ham murakkab asbob-uskunalar, kompyuter texnologiyalari kirib kelmoqda.

Jumladan, HAGLOF markali daraxt diametrini o‘lchagichlar, VERTEX markali masofa va balandlik o‘lchagichlar, MASSER markali kompyuterli mernoy chizgichlar shular jumlasidandir. Bu asboblardan yordamida taksator daraxtlarning zarur ko‘rsatkichlarini aniq va qulay tarzda o‘lchab olishi mumkin. Lekin, bizning sharoitimizda hozircha bu asboblardan foydalanish imkoniga ega emasmiz. Shu sababli biz daraxtlarning taksatsion ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun oddiy ish qurollaridan foydalanishni taklif qilamiz. Bunday asboblarni o‘z kuchimiz bilan tayyorladik va foydalanib kelmoqdamiz. Ulardan biri daraxt diametrini o‘lchovchi asbob (uni diamer deb atadik).



### **Asbob 3 qismdan iborat.**

1-qo‘zg‘almas asos, u santimetrlarga bo‘lingan, uzunligi 80 sm.


2-qo‘zg‘almas tomon, uzunligi 40 sm.

3-suruluvchan tomon, uzunligi 40 sm, o‘ng va chap tomonga surish mumkin.

Asbobni ishlatish: 2-3-tomonlarni daraxtga perpendikulyar holatda olib borib, 1-qo‘zg‘almas asos daraxtga tekkiziladi, 3-suruluvchan tomonni daraxt tanasiga surib, yon

tomondan daraxtga tekkiziladi, birinchi asosdagi 3-tomonning chap tomondagi santimetr ko'rsatkichi daraxt diametrini bildiradi.

Ikkinchi asbob bilan daraxt balandligini o'lchash mumkin (uni balandmer deb atadik). Ma'lumki, tik turgan daraxt balandligini o'lchash ancha murakkab, ushbu asbob bilan daraxt balandligini osongina o'lchash mumkin.



#### Asbob 2 qismdan iborat:

1-tayanch qism, uning bo'yi 2 metr ga teng.

2-tomonlari 40 sm dan iborat to'g'ri to'rtburchak.

O'lchash tartibi: asbobni bo'yi o'lchanadigan daraxt yoniga olib borib, taxminan bo'yicha teng masofaga qo'yiladi. Keyin uni daraxtga yaqinlashtirib yoki uzoqlashtirib, A nuqtadan qarab, S nuqtani hayoliy to'g'ri chiziq bilan daraxt uchiga to'g'rilanadi.

O'sha joydan daraxtgacha bo'lgan masofa ruletka bilan o'lchanib, 1,60 metr qo'shiladi, natija daraxtning balandligini bildiradi.

Ushbu o'lchash usuli uchburchak qonunlariga asoslangan. Bu qonunlarga asosan, to'g'ri burchakli uchburchakning qolgan 2 ta burchagi  $45^\circ$  dan bo'lsa uchburchak katetlarining uzunligi bir-biriga teng bo'ladi. Shunga ko'ra asbobning AS va AV tomonlari hayoliy chiziq bilan davom ettirilsa daraxt bilan to'g'ri burchakli katetlari teng uchburchak hosil bo'ladi, demak, asbobdan daraxtgacha o'lchangan masofa daraxt balandligiga teng bo'ladi (unga asbobning bo'yi 1,60 metr qo'shiladi).

**Xulosa** qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan oddiy ish qurollari yordamida daraxtlarining taksatsion ko'rsatkichlarini va ularning o'sishi, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarini aniqlash mumkin.

#### Фойдаланилган адабиётлар.

1. M.Qalandarov. O'rmon taksatsiyasi. Cho'lpon nashriyoti 2014 yil.
2. Анучин Н.П. - Лесная таксация – Москва: Лесная промышленность, 1982.
3. Avery T.E., Burkhardt H.E. – Forest Measurements – New York: McGraw-Hill, 2002.

4. Husch B., Beers T.W., Kershaw J.A. – Forest Mensuration – John Wiley & Sons, 2003.
5. O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi nashrlari – o‘rmon inventarizatsiyasi va taksatsiya bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar.
6. Toshkent davlat agrar universiteti – O‘rmonchilik va taksatsiya faniga oid o‘quv qo‘llanmalar.
7. O‘zbekiston Respublikasi o‘rmon fondini hisobga olish va inventarizatsiya qilish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar.
8. Лесная энциклопедия. – М., 1985.